

**XXI АСРДА БИОЛОГИЯНИНГ РИВОЖЛАНИШ
ИСТИҚБОЛЛАРИ ВА УЛАРДА
ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ**



**ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ БИОЛОГИИ
В XXI ВЕКЕ И ЗНАЧЕНИЕ В НИХ
ИННОВАЦИЙ**



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**АБДУЛЛА ҚОДИРИЙ НОМИДАГИ
ЖИЗЗАХ ДАВЛАТ ПЕДАГОГИКА ИНСТИТУТИ**

**XXI АСРДА БИОЛОГИЯНИНГ РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ
ВА УЛАРДА ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ**

**Биология ва уни ўқитиш методикаси кафедраси профессори Хударган
Мавлонов таваллудининг 75 йиллигига бағишланган**

**Республика илмий анжумани материаллари
(2021 йил 15 апрель)**

**ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ БИОЛОГИИ В XXI ВЕКЕ И
ЗНАЧЕНИЕ В НИХ ИННОВАЦИЙ
МАТЕРИАЛЫ**

**Республиканская конференция, посвящённая к 75-летию профессора
кафедры биологии и методики её преподавания Хударгана Мавлонова
(15 апреля 2021 года)**

Жиззах-2021

УДК: 581.5 (09)

ББК: 28.58 Г

Э-59

“XXI асрда Биологиянинг ривожланиш истиқболлари ва уларда инновацияларнинг аҳамияти” мавзусидаги республика илмий анжумани материаллари

Жиззах 2021. – 498 бет.

Таҳрир хайъати:, проф. п.ф.д. Ш.С.Шарипов, таҳрир хайъати раиси б.ф.н. доц. Қодиров Ғ., таҳрир хайъати ўринбосари проф., б.ф.д. Раҳмонқулов У. доц., б.ф.д. (PhD) Азимова Д.Э. б.ф.д. (PhD). Авалбоев О.Н. б.ф.д. (PhD). Абдуллаева Н.С. б.ф.д.(PhD). Ҳамраева Н.Т. Усанов У.Н.

Тўплам редакторлари: б.ф.д.(PhD)., доц. Азимова Д.Э., б.ф.д.(PhD). Авалбоев О.Н., б.ф.д.(PhD). Ҳамраева Н.Т.

Ушбу тўплам Жиззах давлат педагогика институтида 2021 йил 15 апрелда бўлиб ўтган Республика илмий анжумани материалларидан иборат.

Уларда флора, систематика ва юксак ўсимликлар географияси, биологикхилма-хилликни ўрганиш ҳамда ноёб, йўқолиб бораётган ўсимлик ва ҳайвон турларининг муҳофазаси, ўсимликлар қоплами, ресурсларини ўрганиш, структуравий ботаника, экология, интродукция, сув ва қуруқлик ценозлари ҳайвонларни ўрганиш, паразитлар ва энтомокомплекслари шакллантирувчи, ҳаракатлартирувчи тадқиқотларнинг замонавий муаммолари бўйича олиб борилган тадқиқотларнинг натижалари келтирилган.

Мақолалар тўплами илмий ҳодимлар, қишлоқ хўжалиги ва сув хўжалиги мутахасислар, олий ва ўрта махсус ўқув юртлари ўқитувчи, талабалари ҳамда тадқиқотчилар учун мўлжалланган.

Мазкур тўплам Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълими вазирлигининг 2021 йил 2 мартдаги 78-Ф-сонли фармойиши асосида нашрга тавсия этилган.

Corispermum lehmannianum), *Asteraceae* (*Cousinia dichotoma*, *Koelpinia linearis*, *Dipterocome pusilla*, *Cousinia prolifera*) oilalarida kuritish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Allanazarova U., Maylun Z.A. O'zbekiston o'simliklari xaritasi.GS, Priroda. – Toshkent, 1985.
2. Baratov P.O'zbekiston tabiiy geografiyasi. – Toshkent:O'qituvchi, 2001. – 45 b.
- 3.Jizzax viloyatining mamuriy va tabiiy - geografik kartasi. M. 1:155000. – Toshkent: MAGK, 1998.
4. Зокиров Ш.С., Попов В.А. Ландшафтно-экологическая карта // Экологический атлас Узбекистана. Юнеско. – Ташкент, 2007. – С. 36-37.
5. O'zbekiston qizil kitobi. – Toshkent: Chinor ENK, 2009. T.1. – 736 b.
6. Тожибаев К.Ш. Кадастр редких и эндемичных растений Джизакского и Навоийского вилоятов Республики Узбекистан // Биоразнообразие Узбекистана, мониторинг и использование. – Ташкент: Чинор ЭНК, 2007. 200–207 С.
7. Pratorov O'.P., Nabiyev M.M. O'zbekiston yuksak o'simliklarining zamonaviy tizimi. – Toshkent, 2007. 62-64 б.
8. Pratorov O'.P., Odilov T. O'zbekiston yuksak o'simliklari oilalarining zamonaviy tizimi va o'zbekcha nomlari. – Toshkent, 1995. 39-42 б.

"ATROF-MUHITNING BIOEKOLOGIYASI"

Z.X. Almamatova, B. Qo'shmatov
Jizzax davlat pedagogika instituti

Insonning tabiatga ta'siri odam paydo bo'lgan davrdan boshlangan.Tabiat insoniyatning yashashi uchun uni o'rab turgan bevoosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadigan tabiiy sharoitdir. Ammo, bugungi kunda insoniyatning tabiatga oqilona ta'siri atrof-muhit ifloslanishi muommosini keltirib chiqarmoqda. Atrof-muhitning ifloslanishida tabiiy va antropogen omillar asosiy ro'l o'ynaydi.Tabiiy omillari asosida atrof-muhitning ifloslanishi,avvallo tabiiy yo'l bilan chaqmoq chaqishi,o't-o'lanlar va o'rmonlarning yonishi,shamol harakati biosferada uzluksiz boradigan jarayonlar natijasida yuz beradi. Ammo,hozirgi vaqtda tabiatning ifloslanishida suniiy omillar eng ko'p qatnashmoqda. Atmosferaga chiqarilayotgan ifloslanishning 2/3 qismi, uning hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Atrof-muhitning ifloslanishi jamiyatga ham moddiy,ham ma'naviy zarar keltirmoqda.Hatto suv va tuproqdagi iflos moddalar ta'siri ostida,qurilish materiallari,to'qimalar, rezina bo'yoqlar,tarixiy va madaniy yodgorliklar yemirilmoqda. Atrof-muhitning ifloslanishi barchaga geografik qobiqda,jumladan,litosfera,gidrosfera va atmosferada kuchayib bormoqda. Quruqlik ya'ni litosferaning ifloslanishi bu yer osti boyliklarini o'zlashtirish,ayniqsa, ularni ochiq usulda qazib chiqarish natijasida yuzaga kelmoqda. sanoat va qishloq xo'jaligi chiqindilari bilan ifloslanmoqda.Gidrosfera- bu asosan sanoat,qishloq xo'jaligi va uy-ro'zg'or,maishiy xizmat sohaslarining oqova suvlari qo'shilishi natijasida ifloslanmoqda.Oqibatda chuchuk suv kamayish tabora kuchayib bormoqda. Bunday holatlar dunyoda aholi eng zich yashaydigan hududlar bo'ylab Reyn, Sena, Temza, Dunay,

Dnepr, Volga, Don, Mississippi, Nil, Hind, Gang kabi daryolarning havzalarida ko'proq kuzatilmoqda.

Atmosfera - bu elektrenergetika, metallurgiya, kimyo va boshqa sanoat tarmoqlari, transport vositalari, turli xil yog'inlar tufayli ifloslanib bormoqda. Atmosferaning ifloslanib borishi insoniyat oldiga yana bir murakkab muommoni qo'yimoqda. Keyingi yillarda havoga xlor,ftorli birikmalarning tabora ko'p chiqishi natijasida yerdagi hayot qalqoni hisoblangan azon qatlamining tobora yupqalashi borishi kuzatilmoqda. Tabiatni muxofaza qilish muommosi kun sayin murakkablashib bormoqda. Har qanday ekologik muommo birinchi navbatda insoniyatga uning salomatligiga ta'sir ko'rsatadi. Masalan Orol muommosi ijtimoiy-iqtisodiy muommolarni keltirib chiqarmoqda. Chunki, Orolga yaqin hududlarda yashovchi aholi orasida turli xil yuqumli kasalliklarning kelib chiqishi, qishloq xo'jaligiga salbiy ta'siri kuzatilmoqda. Nafaqat Orol bo'yida, balki minglab kilometr uzoqda joylashgan hududlarda ham iqlimning o'zgarishi, atmosferaning ifloslanishi holatlari kuzatilmoqda. Suv havzalari atmosfera havosi, tuproqlari, sanoat chiqindilari bilan kuchli ifloslanib borayotganligi ma'lum. Bu o'simlik va hayvonot dunyosi, shuningdek, odamlar sog'ligiga ham kuchli ta'siri xavf bo'lib qolmoqda. Bu salbiy omillar asta-sekinlik bilan butun yer yuzini o'z ta'siri ostiga olib boshladi. Shunday qilib tabiatdan foydalanishni takomillashtirish, atrof-muhit ifloslanishining oldini olish barcha hudud va davlatlarda ilmiy asoslangan ekologik siyosatni yuritish hozirgi davr oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir.

O'zbekiston Respublikasida bugungi kunda atrof-muhit muhofazasida e'tiborga loyiq ishlar olib borilmoqda. Biz aziz yoshlar ona tabiatimizni ko'z qorachig'iday asrab avaylamog'imiz, uning kelajak avlodlar uchun sog'lom yetkazishimiz zarur. Zero, insoniyat oldida tabiatga siz deb munosabatda bo'lish vazifasi turadi. Biz kelajak avlodga yaratgan ma'naviy va moddiy boyliklarimizni, bizgacha mavjud bo'lgan tabiatni va unga munosabatimizni, ya'ni ekologik madaniyatimizni ham meros qilib qoldiramiz. Ekologik madaniyat, bu - faqat tabiatga zarar keltirmaslik emas, balki uning tiklanishi, yanada go'zallashuvi, gullab-yashnashiga hissa qo'shish, atrof-muhitni ziyorat etuvchilarga qarshi beayov kurash olib borish degani hamdir. Yangi asrning barkamol kushisi o'zida ekologik madaniyat unsurlarini ham nomoyon eta olishi zamon talabidir. Ekologik madaniyat-bu atrof-muhit to'g'risida chuqur bilimga, tabiatni asrash tuyg'usiga ega bo'lish, o'simliklar hamda hayvonlarga nisbatan g'amxo'rlik ko'rsatishga, tabiat zahiralardan oqilona foydalanish, ularni ko'paytirish borasida qayg'urishga qaratilgan amaliy faoliyatning yuksak ko'rsatgichidir. Ana shu xislatlarni o'zida aks ettira olgan insonni ekologik madaniyat egasi, deb atash mumkin. Iste'moldan ortiqcha suv jo'mraklardan oqishiga yo'l qo'ymaslik, suv havzalarini ifloslantirmadlik, axlatni duch kelgan joyga to'kmaslik, turar joylarni ozoda saqlash, ko'chat va gullarni sindirmaslik amda ularni ekish, hayvonlarga g'amxo'rlik qilish, qushlarni parvarishlash, xonadon va xiyobonlarni gulzorga aylantirish kabi madaiylilikning eng oddiy ko'rinishlari sanaladi.

Hozirgi davrda inson va tabiat, fan-texnika yutuqlaridan unumli foydalansada, inson ana shu uyg'unlikni buzmoqda, unga nisbatan shafqatsizlarcha munosabatda bo'lmoqda. Tabiiy boyliklardan: suvdan, yerdan o'rinsiz foydalanish ekologiyani o'zgartirib yubordi. Qishloq xo'jaligi ekinlarini noto'g'ri rejalashtirish, kimyoviy o'g'itlarni haddan ziyod ko'p qo'llash yer unumdorligini va inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Korxonalaridan oqib chiqayotgan zaharli oqavalar suv havzalarini ifloslantirishi birinchi navbatda hayvonot dunyosi va o'simliklar dunyosiga ofat keltirmoqda. Transport vositalaridan chiqayotgan

tutun-gaz havoning tozaligini buzyapti. Bularning barchasi ekologik madaniyatni talab qilmoqda.

Inson tabiatning bir qismi, demak odamlarning o'zlari, ularning o'zaro munosabatlari hamda atrof-muhitning bir qismi sifatida ekologik muommoni yuzaga keltirdi. Bu muommo tabiiy muhit bilan bir qatorda ijtimoiy muhitda yuz bergan salbiy o'zgarishlar tufayli paydo bo'ldi. Ijtimoiy muhitning holatiga ta'sir etuvchi omillar mavjud. Ijtimoiy muhitning holatiga qarab, ularni salbiy va ijobiy ta'sir etuvchi omillarga bo'lish mumkin. Me'yorida yaratilgan ijtimoiy muhit jamiyatning har bir a'zosiga ijobiy ta'sir etadigan, uning xavfsizligini ta'minlaydigan va har bir shaxsni barkamolligiga ko'maklashadigan barqaror ma'naviy-ruhiy iqlimdir. Salbiy ta'sir etuvchi omillar kushilar kayfiyati va ruhiyatini yomonlashuvi va organizmning turli xil kasallanishining paydo bo'lishiga qulay muhit yaratadi.

Salbiy ekologik omillar inson salomatligiga va uning tadrijiy rivojlanishiga aks ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy muhitning yamonlashuvi ijtimoiy o'zgarishlar, shuningdek, hamma narsada tabiat ustidan hukmronlik qilish mmaqsadiga qaratilganligi, insonning o'zini ikkinchi o'ringa tushirib qo'ydi. Oqibatda inson faoliyati jilovdan chiqdi va umumbashariy falokatlani keltirib chiqardi. Inson sihat-salomatligi davlat mulkidir. Aholining salomatligi tabiiy hamda ijtimoiy muhitning holatiga bog'liq. Bugungi kunda yalpi yadro urishi xavfi nisbatan kamaygan bo'lsada, ekologik biogenetik buzilishlar xavfi hamon taxtikali holatda saqlanib qolmoqda. atrof-muhitni muhofaza qilish muommosi birinchi o'ringa chiqmoqda. Ikkinchi tamondan tabiatga antropogen, antrotexnogen, antropotogenetik, antropolitik va boshqa suniiy ta'sir yo'nalishlarining kompleks xarakteri turli mintaqalardagi iqtisodiy-siyosiy, demografik-etnografik vaziyatlarning keskinlashuvi, inson-tabiat munosabatlarini murakkablashtirib yubormoqda. Shu sababli atmosferamizni, jumladan atrof muhitni toza ozoda tutishimiz zarur. Ochiq holda qolgan suv jumraklarini yopish ichimlik suvini tejashga keraksiz narsalarni chiqindi qutisiga solish, atrof muhitini tozaligini saqlashga yordam beradi.

Yuqorida aytilgan so'zlar asosida biz o'qituvchilar talabalarga, o'quvchilarga o'qtirsak maqsadga erishgan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublkasida atrof –muhit muhofazasi va tabiiy resurslardan foydalanishning holati to'g'risda .Milliy maruza.2006
2. D.Yormatova.Ekologiya. Toshkent.2009
3. Ibrogimov R.Ekologik ta'lim tarbiya. Ekologiya xabarnomasi jurnali. 10.2010y.9-11bet.

BIOLOGIYANI SABZAVOTLARSIZ TASAVVUR QILIB BO'LMAYDI

D.I. Mustafaqulova, O. Ismatullayev, G.F. Malikova
Jizzax davlat pedagogika instituti

Sabzavotlar qiroli bu - sarimsoq, desak mubolag'a bo'lmaydi. Sarimsoqning shifobaxsh xususiyatli barchaga ma'lum . Ammo u qachon va qaerda paydo bo'lganligi va O'zbekistonga qachon keltirilganligini ko'pchilik bilmasa kerak.

Insoniyat qachondan sarimsoq iste'mol qila boshlaganligi xususida aniq qaytlar yoq. Ammo 1991 yili Misr ehromlarida olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida uning

MUNDARIJA

1-SHO'BA. BIOLOGIYANING ASOSIY MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

1	Х.Қ. Хайдаров, М.М. Норкулов. МАРКАЗИЙ ОСИЁДА ЛИШАЙНИКЛАРИНИНГ ЎРГАНИШ ТАРИХИ ВА ЎЗБЕКИСТОНДА ОЛИБ БОРИЛАЁТГАН ДАСТЛАБКИ ТАДҚИҚОТЛАР.....	3
2	У.Ш. Каршиева, Ф. Олтибоева, Х. Амонов. НАЗОРАТ ВА РАҚОБАТ НАВ СИНАШ МАЙДОНИДА ЎРГАНИЛГАН НАВ ВА ТИЗМАЛАРНИНГ ҚИММАТЛИ БЕЛГИ ВА ХУСУСИЯТЛАРИ.....	6
3	Халмирзаева Л.Б., Ф.Ш. Абдурасулов. ЎФИТЛАШ ВА БАРГДАН ҚЎШИМЧА ОЗИҚЛАНТИРИШНИНГ УНАБИ КЎЧАТЛАРИГА ТАЪСИРИ.....	8
4	Ш.Х. Юсупова И.И. Зокиров. ТАНГАЧАҚАНОТЛИЛАР (<i>LEPIDOPTERA</i>) – НЎХАТНИНГ АСОСИЙ ЗАРАРКУНАНДАЛАРИ.....	11
5	Бобаева А.С., Халилов Х.Р., Синдоров Ш.Қ. ОЗУҚАБОП ЎСИМЛИКЛАР ГЕНОФОНДИДАН ТАБИИЙ ЯЙЛОВЛАР ХОСИЛДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ.....	13
6	Р.К. Ғуломов. <i>PHLOMOIDES ISOCHILA</i> (RAZIJ ET VVED.) SALMAKITUFIGA (<i>LAMIACEAE</i>) ФАРҒОНА ВОДИЙСИДАГИ АНТРОПОГЕН ОМИЛЛАРИНИНГ ТАЪСИРИ.....	16
7	Х.Х. Солижонов, З. Иззатуллаев. ФАРҒОНА ВОДИЙСИ ЗУЛУКЛАРИНИ ТАДҚИҚ ЭТИШНИНГ ДОЛЗАРБЛИГИ ВА АҲАМИЯТИ.....	21
8	Шоэргашова Ш.Ш., Каримов Э.Б., Латышева Л.Н., Оллоберганов ¹ Ш. ОЦЕНКА СОВРЕМЕННОГО СОСТОЯНИЯ КАЧЕСТВА ВОДЫ РЕКИ ЗАРАФШАН ПО УРОВНЮ ЗАГРЯЗНЕНИЯ МИНЕРАЛЬНЫМИ СОЛЯМИ.....	23
9	М.И. Алимова, Н.Б.Эгамбердиев, Б.Р. Насибов. УНИЧТОЖЕНИЕ МИКРООРГАНИЗМОВ ВЫЗЫВАЮЩИЕ ГНИЕНИЕ ПИВОВАРЕННОГО ЯЧМЕНИЯ С ПРИМЕНЕНИЕМ ОЗОНА.....	27
10	Мавлонов Х, Раҳимова М, Холмирзаева А. ЭКОЛОГИЯ ФАНИНИНГ ИСТИҚБОЛЛАРИ.....	29
11	N. T. Xamrayeva, U. S. Sotiboldiyev, O. Sayfiyev. POLIFAG ZARARKUNANDA CHIGIRTKALAR VA ULARGA QARSHI KURASH SHORALARI.....	32
12	Махаммადийев D.M., Мавлонова S.X., Аберқулов E.A., Алимов A. A. JIZZAX SHAHAR FLORASIVA UNI O'RGANILISHI.....	34
13	Z.X. Almamatova, B. Qo'shmatov. ATROF-MUHITNING BIOEKOLOGİYASI.....	38
14	D.I. Mustafaqulova, O. Ismatullayev, G.F. Malikova. BIOLOGIYANI SAVZAVOTLARSIZ TASAVVUR QILIB BO'LMAYDI.....	40
15	Э.Э. Икромов, Э.Ф. Икромов. КЎЛ БАҚАСИНИ <i>CENTRORHYNCHUS ALUCONIS</i> LUNE, 1911 АКАНТЕЛЛАСИ БИЛАН ЗАРАЛАНИШИНИНГ ХУДУДИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ.....	44